

BADIIY SAN'ATLAR HOSIL BO'LISHIDA ASSOTSIATIV-VERBAL MUNOSABATNING O'RNI

M. Nasirov,

QDPI, O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi

O.Tursunova,

N.Tojekarimova,

A.Bozorov

QDPI talabalri

Annotatsiya

Ushbu maqolada mumtoz she'riy matnlarning hosil bo'lishidagi assotsiativ-verbal vositalar tahlil qilingan. Mumtoz adabiyotda til birliklari o'rtasidagi assotsiativ munosabatlarga asoslangan she'riy san'atlardan misolla keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, she'riy san'at, poetika, assotsiativ munosabat, assotsiatsiya, assotsiat, stimul so'z.

Mumtoz she'riy matnlardagi assotsiativ juftliklar she'riy matnni shakllantirishda qurilish materialini vazifasini bajarish bilan birga, tazod, tanosub, talmeh, laff va nashr, ishtiqoq kabi she'riy san'atlarini hosil qilib, badiiylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mumtoz she'riy matnlarni assotsiativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilganda asosiy e'tiborni birliklarning assotsiativ munosabatiga asoslanadigan she'riy san'atlarni tahlil qilishga qaratdik.

Demak, leksemalar o'rtasidagi assotsiativ munosabatga asoslanadigan she'riy san'atlardan biri bu tazod san'ati hisoblanadi. Tazod – ma'naviy san'atlarning eng ta'sirchan va ko'p ishlatiladigan turlaridan biri bo'lib, nasr va nazmda keng qo'llanilgan. “Bu san'at shundan iboratki, kotib yo shoir nasr yoki nazmda (ma'no jihatidan) bir-biriga zid bo'lgan so'zlarni keltiradi: issiq va sovuq, yorug' va qorong'i, qo'pol va nozik, qora va oq kabi”.¹ Ushbu ta'rifning o'zidan ko'rinadiki, antonimlik munosabatidagi leksemalar tazod san'atini yuzaga keltiradi.

¹ Y. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. –T.: “O'zbekiston”, 2014. –B. 192.



Leksemalarning antonimlik paradigmasini esa assotsiativ munosabat hosil qilishi ma'lum. Misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

Podshoh yo'qlatsalar nogah, **gado** deb axtaring,

Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring. (Muqimiy)

Ushbu baytdagi *Podshoh* – *gado* assotsiativ juftligi tazod san'atini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. *Podshoh* – *gado* juftligi bevosita bir-birini yodga solish mexanizmi asosida til egalari xotirasida saqlanadi. Ushbu assotsiativ juftlik nafaqat she'riy matnning tarkib topishiga xizmat qilgan, balki badiiy tasvir vositasi hisoblangan – tazodni hosil qilib badiiylilikni ta'minlagan. Til egalari xotirasida *Podshoh* bilan birgalikda *gado* leksemasi ham saqlanadi. Birini aytilishi bilan ikkinchisi xotirada jonlanadi. She'riy matnlarda esa leksemalarning bu munosabati assotsiativ munosabatni hosil qilish bilan birgalikda she'r matnini yodda qolishini osonlashtiradi.

Til birliklarining assotsiativ munosabatiga asoslangan yana bir she'riy san'at bu tanosib san'atidir. Tanosib – qo'llanish doirasi nihoyatda keng bo'lgan va bir qator she'riy san'atlar bilan uzviy bog'langan ma'naviy san'at. "So'zlovchi ma'no jihatidan bir-biriga monand narsalarni ifodalovchi so'zlarni yig'sa (oy va quyosh, daryo va kema singari), ana shunday so'zni (ifodani) tanosib deyiladi".² Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, tanosib san'ati leksemalarning uyadoshlik va sinonimlik paradigmalariga asoslanadi. Uyadoshlik va sinonimlik paradigmalarini hosil bo'lishida esa leksemalarning assotsiativ munosabati yetakchi o'rin tutadi. Misollarga e'tibor qaratamiz:

Anda bir shoh hokim-u voliy,

Mulki ma'mur-u himmati oliy. (Alisher Navoiy)

Ushbu she'riy matnda tanosib san'ati ikki yo'nalishda hosil bo'lgan: birinchisi, *shoh*, *hokim*, *voliy*, *oliy* leksemalari orqali; ikkinchisi *mulk* va *ma'mur* leksemalari orqali. *Shoh* leksemasi aytilishi bilan til egalari xotirasida *hokim*, *voliy*, *oliy* leksemalari tiklanadi. Bu esa assotsitsiyadir. Ushbu til birliklari she'riy matnning semantik yaxlitligini ta'minlash bilan birga tanosib she'riy san'atini yuzaga keltirgan hamda o'quvchida o'ziga xos kayfiyat paydo qilgan. *Mulk* va *ma'mur*

² Y. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. –T.: "O'zbekiston", 2014. –B. 206.



leksemalari ham she'riy matnni hosil qilish bilan birgalikda bir-biri assotsiativ tarzda bog'lanadi.

Vasl shomi kuymagan parvona shoyad qolmag'ay,

Bu shafaqqul hullakim sham'i shabistonimdadur. (Alisher Navoiy)

Ushbu matnni tashkil qilgan *shom*, *kuymoq*, *parvona*, *sham'i shabiston* kabi leksik birliklar matnni semantik jihatdan shakllantirish bilan birgalikda tanosib she'riy san'ati yuzaga keltirgan. Ushbu birliklar o'zaro assotsiativ bog'langan verbal assotsiatsiyalar hisoblanadi. Bulardan *parvona*, *shabiston*, *sham'i* kabi birliklar leksemalarning eksralingvistik omil – pretmetlarning makondagi aloqadorligi asosida bir-biri bilan assotsiativ bog'langan, ya'ni sha'm bor joyda parvona ham bo'ladi. Shuning uchun ham til egalari xotirasida *sham*, *parvona* va qorong'u leksemalari bir-biri bilan assotsiativ bog'langan holda saqlanadi. Ushbu assotsiativ bog'langan birliklar mumtoz matnni shaklan to'ldirdirgan hamda badiiy matnning ta'sir kuchini yana-da oshirgan va tanosib san'atini hosil qilgan.

Leksemalar o'rtasidagi assotsiativ munosabatga tayanuvchi she'riy san'atlardan yana biri bu talmeh san'atidir. Talmeh so'zining lug'aviy ma'nosi arabcha, *chaqmoq chaqilishi*, *bir nazar tashlamoq* demakdir. "Talmeh shuki, so'zlovchi (ya'ni yozuvchi, bayon qiluvchi) nazm yo nasrda o'z matlabining isboti uchun mashhur qissaga yo oyatga, yo hadisga, yo ma'lum masal va shu kabilarga ishorat qiladi".³ Ushbu she'riy san'at nafaqat oyat, hadis, masalga, balki biror tarixiy shaxs, tarixiy voqea ham ishora qiladi. O'quvchi matnni o'qish davomida biror leksema yoki birlikni o'qiganda uning ongida shu birlik bilan bog'liq bo'lgan boshqa pretmet, voqea-hodisalar assotsiativ tarzda jonlanadi. Misollarga e'tibor qaratsak,

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz,

Nusri basarim, xoh inon, xoh inonma. (Lutfiy)

Ushbu matnda "Ya'qub" leksemasi orqali ijodkor Yaqub (a.s) bilan bog'liq qissaga ishora qilgan. O'quvchi Ya'qub (a.s) ismini o'qishi bilan ongda aynan shu shaxs bilan bog'liq qissa assotsiativ jonlanadi. Leksemalarning assotsiativ munosabati ancha keng qamrovli ekanligi aynan mumtoz she'riy matnlardagi talmeh san'ati orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan shu o'rinda assotsiativ munosabatdan boshqa munosabatlarda kam uchraydigan butun bir voqea-hodisaga (matnga) ishora

³ Y. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. –T.: "O'zbekiston", 2014.-B. 198.



qilishni ko'rishimiz mumkin. O'quvchi *Ya'qub* so'zini o'qishi bilan suyukli o'g'li Yusufdan ayrilib, firoqida cheksiz ko'z yoshlari to'kishi oqibatida ko'zlari ko'r bo'lib qolgan *Ya'qub*ning holatini eslashi bilan oshiqning o'z sevgilisi ishtiyoqida qanday ahvolga tushib qolganligini darhol ko'z oldiga keltiradi. Bundan kelib chiqadiki, leksemalarning assotsiativ munosabati shu leksema bilan bog'liq bo'lgan butun jarayonni ham ongda tiklashi mumkin.

Leksemalarning assotsiativ munosabatiga asoslanadigan she'riy san'atlardan yana biri bu laffu nashrdir. Laffu nashr – lug'atdagi ma'nosi – *turmaklamoq*, *yig'moq* va *yoymoq*. Shoir bir misra yoki baytda bir nechta buyum yoki tushuncha nomini bayon qiladi. Keying misra yoki baytlarda o'sha buyum yoki tushunchalarni birma-bir sharhlaydi.⁴ Ushbu she'riy san'at leksema va uning ma'nosini qaysidir tomondan sharhlashga asoslanadi. Masalan,

Xating bila yuzungu kokiling sening, ey jon,

Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon. (Z.M. Bobur)

Ushbu matnni tashkil qilgan *Xat* (*lab ustidagi tuklar*) – *Binafsha*, *Yuz* – *Yosuman*, *Kokil* – *Rayhon* assotsiativ juftliklar she'riy matnni tashkil qilish bilan birgalikda matnni semantik jihatdan yaxlitlashga hizmat qilgan. Laffu nashr san'atida birinchi misradagi *Xat*, *Yuz*, *Kokil* leksemalarining ma'nosi ikkinchi misradagi *Binafsha*, *Yosuman*, *Rayhon* leksemalari orqali izohlangan. Ya'ni mumtoz asarlardan ma'lumki, yor yuzini yosuman guliga, sochining hushbo'yiligini rayhonga o'xshatish ko'p uchraydi. Ijodkor bu o'rida bir-biri bilan bog'langan assotsiativ bog'langan bunday birliklarni qo'llash orqali laffu nashr san'atini hosil qilgan. Bir-biri bilan bog'liq bunday assotsiativ juftliklar matnnining semantik jihatdan yaxlitlagan hamda she'riy san'atning hosil bo'lishida muhim vazifa bajargan.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz she'riy matnlarning tarkibida uchrovchi assotsiativ munosabatlar matnni hosil qilish bilan birgalikda, turli she'riy san'atlarning hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

⁴ Y. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. –T.: "O'zbekiston", 2014. –B. 66.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxsutali o'gli, Nasirov Muslimjon. "BADIIY DISSKURSDA KOGNITIV METAFORALARNING ISHLATILISHI." *Proceedings of International Educators Conference*. Vol. 2. No. 6. 2023.
2. Hasanov, A. "NAZAR ESHONQUL IJODIDA KINOYANING BADIIYUSLUBIY XUSUSIYATLARI." *Science and innovation 2*. Special Issue 5 (2023): 209-211.
3. Nasirov Maxsutali-o'g'li, Muslimjon. "RADIOALOQA TERMINLARINING STRUKTUR XUSUSIYATLARI." *Ustozlar uchun* 19.1 (2023): 264-267.
4. Хасанов, А. А. "КИНОЯНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ВА ЛИНГВОПОЭТИК ТАХЛИЛИ." *Science and innovation 2*. Special Issue 5 (2023): 299-302.
5. Nasirov Maxsutali-o'g'li, Muslimjon, and Malikaxon Meliqo'ziyeva. "RADIOALOQA TERMINLARINING DERIVATION XUSUSIYATLARI." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 2. No. 6. 2023.